




ANDIJON VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Andijon viloyatida qurilish sohasini rivojlantirish

2023-YIL  
YANVAR

# Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


Qurilish ishlari hajmi, mlrd soʻmda



2023- yil yanvar oyida, Andijon viloyatida jami **258,7** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yil yanvar oyiga nisbatan **63,6 %** ni tashkil etdi.




Yillar kesimida oʻsish surʼati  
*yanvar oyi boʻyicha*



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati – bu, oʻz-oʻzidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

# Andijon viloyati qurilish ishlari

Shahar va tumanlar kesimida, mlrd soʻmda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2023- yil yanvar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 78,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 68,7 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 46,2 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,7 foiz ulushni va 54,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Hajm, mlrd so'm



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **67,5 %** yoki **174,5 mlrd so‘m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 3,6 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 114,3 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 56,6 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari 2023- yil yanvar

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>174,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Andijon sh.</b>	55,9	32,0
<b>Xonobod sh.</b>	5,5	3,2
<b>Oltinko‘l</b>	8,4	4,8
<b>Andijon</b>	23,2	13,3
<b>Baliqchi</b>	4,1	2,3
<b>Bo‘ston</b>	6,9	3,9
<b>Buloqbooshi</b>	3,5	2,0
<b>Jalaquduq</b>	7,0	4,0
<b>Izboskan</b>	5,3	3,1
<b>Ulug‘nor</b>	2,1	1,2
<b>Qo‘rg‘ontepa</b>	6,0	3,5
<b>Asaka</b>	8,4	4,8
<b>Marhamat</b>	8,4	4,8
<b>Shahrixon</b>	16,4	9,4
<b>Paxtaobod</b>	7,7	4,4
<b>Xo‘jaobod</b>	5,7	3,3

*\*hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

2023- yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahri (55,9 mlrd so‘m), Andijon tumanida (23,2 mlrd so‘m), Shahrixon tumanida (16,4 mlrd so‘m) va Marhamat tumanida (8,4 mlrd so‘m) qayd etildi.

# 2023- yil yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


*Korxonalar turlari bo'yicha*

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,5 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,1 % punktga kamayib, 68,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,0 % punktga ko'payib, 30,4 % ni tashkil etdi.

Jamiga nisbatan  
.....ulushi.....



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

## O'sish sur'ati

## Bino va inshootlarni qurish

77,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari

59,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

102,9 %

Norasmiy sektor



# Bino va inshootlar qurilishi

## 2023- yil yanvar uchun

### Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

#### Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



#### Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



**MALUMOT UCHUN:** Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Ulug'nor tumani (2022- yilga nisbatan 134,9%), Jalaquduq tumani (2022- yilga nisbatan 142,7%)ga to'g'ri keldi.




# 2023- yil yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 8,1 % punktga ko'payib 99,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 6,5 % punktga kamayib, 0,4 % ni tashkil etdi.



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- norasmiy sektor

### O'sish sur'ati

### Fuqarolik obyektlarini qurish



0,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

50,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2,8


Norasmiy sektor

# 2023- yil yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

## Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd so'm va foizda)



## Hajm va o'sish sur'ati

(oy ko'rsatkichlari)




**MALUMOT UCHUN:** Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Bo'ston tumani (2022- yilga nisbatan 419,0 %), Izboskan tumani (2022- yilga nisbatan 1448,0 %), Buloqboshi tumani (2022- yilga nisbatan 121,8 %) va Baliqchi tumani (2022- yilga nisbatan 118,0 %)ga to'g'ri keldi.

# 2023- yil yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari


*Korxonalar turlari bo'yicha*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yil yanvar oyiga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi va 1,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,7 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar oyiga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.



## O'sish sur'ati

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



164,8%

Yirik qurilish tashkilotlari

53,3%

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

# 2023- yil yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

## Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



## Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



0,0 %


0,0 %

0,0 %

**MALUMOT UCHUN:** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Qo'rg'ontepa tumani (2022- yilga nisbatan 346,3 %), Marhamat tumani (2022- yilga nisbatan 329,9 %), Baliqchi tumani (2022- yilga nisbatan 207,4 %) va Xonobod sh. (2022- yilga nisbatan 137,2 %)ga to'g'ri keldi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **6,4** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **252,4** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %** ni tashkil etdi.



**yanvar-dekabr oylarida hajm, mlrd so'm**



**6,4**  
*mlrd so'm*  
Davlat mulki

**252,4**  
*mlrd so'm*  
Nodavlat mulk

**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi), Andijon tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 92,8 foizi) va Oltinko'l tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 99,3 foizi) qayd etildi.

# 2023- yil 2- fevral holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- bino va inshootlar qurilishi 60,1 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 9,7 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 118,9 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30,2 %, o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil etdi.

